



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - aprel

VI-60-73-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumanidagi tijorat banklari tomonidan dasturlar doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini ta'minlash, ularni so'ndirish grafigiga muvofiq belgilangan muddatlarda qaytarilishi hamda muammoli kreditlarni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan axboroti to'g'risida

Angor tumanida dasturlar doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini ta'minlash, ularni so'ndirish grafigiga muvofiq belgilangan muddatlarda qaytarilishi hamda muammoli kreditlarni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tumandagi tijorat banklari rahbarlarining axborotlari eshitilib, deputatlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dasturlar doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini ta'minlash, ularni so'ndirish grafigiga muvofiq belgilangan muddatlarda qaytarilishi hamda muammoli kreditlarni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tumandagi tijorat banklari rahbarlarining axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi mavjud bank filiali va bank xizmatlari markazlariga:

– kreditlarni ustuvor ravishda dasturlar bo'yicha avval kreditlardan foydalanmagan aholi va tadbirkorlik subyektlariga ajratish choralarini ko'rish;

– sektor rahbarlari bilan birgalikda aholini ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va servis, tikuvchilik, parrandachilik, bog'dorchilik, asalarichilik, chorvachilik va baliqchilik yo'nalishlarida bandligini ta'minlash yangi ish o'rni yaratish choralarini ko'rish;

– oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarga imtiyozli bank kreditlarini ajratishda muntazam yordam berish;

– ustuvor ravishda "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga

kiritilgan fuqarolarga daromadli mehnat bilan band qilish yoki ularni doimiy mehnat bilan bandligini ta'minlash (ish o'rinlari yaratish)ga qaratilgan loyihalarga yo'naltirilishida mahallalardagi hokim yordamchilari mas'uliyatini oshirish chorasini ko'rish;

– dasturlar doirasida mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilarining tavsiyanomalariga asosan moliyalashtirilgan loyihalarni har oy yakuni bo'yicha maqsadlilikini monitoring qilib borish;

– bank xizmatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish, xizmat turlarini yanada kengaytirish va sifatini yaxshilash choralari ko'rish;

3. Tumandagi sektor rahbarlari hamda mahallalardagi hokim yordamchilari:

– tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar bo'yicha yuzaga kelgan qarzdorliklarni undirilishida amaliy yordam qilish choralari ko'rsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari (O.Muratov)ga:

– tijorat banklari tomonidan dasturlar doirasida ajratilayotgan kreditlar samaradorligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida **har chorak yakuni** bilan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borishi belgilab qo'yilsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari tijorat banklari tomonidan fuqarolarga ajratilayotgan kreditlar bo'yicha deputatlik nazoratini o'rnatsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



X.Xolmurodov